



Training future teachers to use digital technology

Nargiza KUCHKOROVA¹

Urgench State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received January 2022

Received in revised form

15 January 2023

Accepted 25 February 2023

Available online

15 March 2023

Keywords:

digital technologies,
pedagogical technologies,
kindergartener,
ICT tools,
computer technologies,
interactive game,
interactivity,
electronic textbook.

ABSTRACT

This article discusses information about teaching preschool children to expand memory, perception, imagination, free thinking, independently express their attitude to current events through the use of digital technologies in preschool educational organizations. The productive use of ICT in the process of activity in order to form the intellectual abilities of children is evidenced by the research work of a number of scientists.

2181-1415/© 2023 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss2/S-pp189-194>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Bo'lajak tarbiyachilarni raqamli texnologiyadan foydalanishga o'rgatish

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

raqamli texnologiya,
pedagogik texnologiya,
tarbiyachi,
AKT vositalari,
komputer texnologiyalari,
interaktiv o'yin,
interaktiv qobilyat,
elektron qo'llanma.

Ushbu maqolada hozirgi davrda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni xotira, idrok, tasavvularini kengaytirish, erkin fikrlash, voqea-hodisalarga mustaqil o'z munosabatlarini bildirishga o'rgatish haqida ma'lumotlar berilgan. Ularning intellektual qobiliyatlarini shakllantirish maqsadida faoliyatlar jarayonida AKTlardan unumli foydalanish haqida bir qancha olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlari ko'rsatib o'tilgan.

¹ PhD, Associate Professor, Department of Methods of Preschool Education, Urgench State University, Urgench, Uzbekistan. E-mail: kuchqarova06071979@gmail.com

Обучение будущих воспитателей использованию цифровых технологий

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

цифровые технологии,
педагогические
технологии,
воспитатель,
средства ИКТ,
компьютерные
технологии,
интерактивная игра,
интерактивность,
электронные пособия.

В данной статье представлена информация о том, как научить детей дошкольного возраста расширять память, восприятие, воображение, свободное мышление, самостоятельно выражать свое отношение к происходящим событиям с помощью использования цифровых технологий в дошкольных образовательных организациях в современный период. О продуктивном использовании ИКТ в процессе деятельности с целью формирования интеллектуальных способностей детей свидетельствуют научно-исследовательские работы ряда ученых.

KIRISH

Hozirgi davrda har tomonlama yetuk shaxsni tarbiyalashda yoshlarni intellektual qobiliyatini oshirish va ularni barcha jabhalarda faol, barkamol inson qilib voyaga yetkazish mamlakatimizda davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Sababi, ham jismonan yetuk ham ma'nan boy shaxslargina buyuk davlatni barpo qiladi.

Yurtimizda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, tarmoqlarini kengaytirish, yanada rivojlantirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yaxshilash, tarbiyalanuvchilarni maktabga tayyorlash sifatini oshirish, ta'lim-tarbiyaviy faoliyat jarayonlarida zamonaviy ta'lim dasturlarini qo'llash, bolalarni har tomonlama: jismoniy, aqliy, axloqiy, estetik, intellektual salohiyatlarini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 9-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-son [1], 2018-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-son [2] hamda O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi 595-sonli Qonuni [3] yaratildi.

Bolaga ta'lim-tarbiya berish jarayoni qanchalik erta boshlansa, natijasi ham shuncha erta namoyon bo'ladi. Bu esa insonning kelajakdagi butun hayot tarziga o'z ta'sirini o'tkazadi. Shu boisdan ham, maktabgacha ta'lim tizimiga hozirgi kunda alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim-tarbiyaviy jarayonga yangi pedagogik, innovatsion va raqamli texnologiyalar joriy qilinmoqda.

Shuningdek YUNISEF tashkilotining "Bolaga yo'naltirilgan ta'lim dasturi"da maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ta'lim-tarbiya jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishi dolzarb masala ekanligi ta'kidlangan. Qolaversa, bunga taalluqli o'laroq MTTlarda raqamli texnologiyalardan foydalanish ham bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri desak, mubolag'a bo'lmaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Hozirgi zamon maktabgacha ta'lim tashkilotlarida raqamli texnologiyalar hisoblangan AKTlar(interaktiv doskalar, televizorlar, smartfonlar)dan keng foydalanishni talab qiladi. MTTlarda AKTlardan foydalanish maktabgacha yoshdagi bolalarni e'tiborini tortadi, fikrlash jarayonlarini rivojlantiradi. Yangi axborot texnologiyalari o'quv jarayonini vizual (taqdimot, animatsiya), eshitish (tovush va videomateriallar) va taktik

(interfaol doska, klaviatura) idrokka asoslangan holda qurish imkonini beradi [5]. Olima Djumabayeva bu jarayonlar tarbiyachi-pedagogning ta'lim jarayonidagi bir qancha muammolarini hal qilishi mumkinligini o'rgangan.

Intellektual qobilyatlar bolaning shaxs sifatida shakllanishida muhim omil bo'lgani uchun uning asoslarini bolalarning eng yosh davrlaridan boshlab shakllantirish hamma davrlarda ham dolzarb muammo bo'lgan. Ko'plab tadqiqotchilar bu muammoning yechimini topish maqsadida turli yo'nalishlar va yondoshuvlar asosida tadqiqotlar olib borganlar va yaxshi natijalarga erishganlar.

Xususan, respublikamiz olimlaridan Sh.R. Sanarova, F.O. Xodjiyeva, O.P. Aslonova, T.R. Azlarov, X.Yo. Najmiddinova, A.A. Abduqodirov kabi olimlar ta'limda komputer texnologiyalaridan foydalanishning turli muammolarini o'rganganlar [6].

Raqamli texnologiyalar yordamida bolalarda dastlabki iqtisodiy tushunchalar va iqtisodiy bilimlar bilan qurollantirib boriladi. "Iqtisodiy ta'lim-tarbiya haqidagi dastlabki fikrlar bundan qariyb 3000 yil muqaddam Vatanimiz hududida zardushtiylikning muqaddas kitobi bo'lmish "Avesto" kitobida ham qayd etilgan. Bu asar aslida diniy qarashlar asosida bitilgan, lekin bu durdona asar turli-tuman sohalarga tegishli bo'lgan ilk g'oyalarni ham o'zida mujassamlashtirgan" [7].

Ta'lim-tarbiya jarayonida AKTlardan, ya'ni raqamli texnologiyalardan foydalanish bir tomondan tarbiyachining pedagogik mahoratidan unumli foydalanish bo'lsa, ikkinchi tomondan bu ta'limga qaratilgan innovatsiya hisoblanadi. Bugungi kunda innovatsiya tushunchasi va innovatsion faoliyatni boshqarish hamda yanada takomillashtirish bo'yicha masalalar olimlar A.N. Aripov, A.M. Kadirov, K. Shakirova, M.A. Maxkamova va boshqalar tomonidan o'rganilgan hamda ularning ilmiy-tadqiqot ishlarida yoritilgan.

Olim Merriam Vebster lug'atida "Axborot texnologiyalari" ma'lumotlarni qayta ishlash va tarqatish uchun komputer tizimlari, dasturiy ta'minot va tarmoqlarni ishlab chiqish, texnik xizmat ko'rsatish va foydalanishni o'z ichiga olgan "texnologiya" deb ta'riflanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining faoliyat jarayonida turli zamonaviy pedagogik dasturlardan, AKT vositalaridan, elektron qo'llanmalardan, interaktiv o'yinlardan foydalanish orqali bolalarda diqqat, xotirani kuchaytirish, kuzatuvchanlikni oshirish, raqamli bilimlarning dastlabki bo'g'ini hisoblangan iqtisodiy tushunchalarni shakllantirish va shunga o'xshash bir qancha ijobiy natijalarga erishish yo'llari muhokama qilinadi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida raqamli texnologiyalardan, axborot texnologiyalaridan foydalanish va ta'lim jarayonida qo'llashning asosiy shartlaridan biri shundaki, tarbiyachi bolalarga komputerdan foydalanish qoidalariga aniq rioya qiladigan, komputer bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lgan va komputerning texnik jihatidan imkoniyatlarini to'liq biladigan va maktabgacha yoshdagi bolalarga yangi bilimlarni axborot texnologiyalari orqali faoliyat jarayonida qanday tushuntirishni biladigan mutaxassislar bo'lishi kerak. Shuni nazarda tutgan holda hozirgi davrning asosiy talabi va sharti har bir tarbiyachi-pedagog faoliyat jarayonlarida AKT vositalari (interaktiv doskalar, televizorlar), komputer texnologiyalaridan foydalangan holda ta'lim sifatini hamda maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorgarlik darajasini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarishni taqozo etmoqda.

Qanday turda bo'lishidan qat'i, nazar maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi har bir tarbiyachi bugungi davrda faoliyatlar jarayonini AKTdan foydalangan holda tashkil etishi kerak. Faoliyatlar jarayonida AKTdan foydalanish orqali bolalarga berilayotgan har qanday bilim rang-barang, ko'rgazmali, esda qolarli, interaktiv bo'lib, tarbiyachining vaqtdan unumli foydalanishini ta'minlaydi va vaqtning tejalishiga sabab bo'ladi. Vaqt tejalishi orqali tarbiyachi bolalar bilan qo'shimcha ravishda ishlash imkoniyatiga ham ega bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga takomillashtirilgan "Ilk qadam" o'quv dasturi asosida tashkil etilgan faoliyatlarni komputar texnologiyalaridan foydalanib, tashkil etishda bir qancha vazifalar bajarib olinadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni "Ilk qadam" o'quv dasturi asosida har tomonlama komil inson qilib tarbiyalashda tarbiyachining ta'lim-tarbiya jarayonida to'g'ri yondasha olishi muhim o'rin egallaydi. Mashg'ulot paytida bolaning erkin harakat qilishi, mustaqil fikrlashi uchun tarbiyachi tomonidan vaziyat yaratiladi. Guruh xonasida markazlarni to'g'ri joylashtirish, jihozlarning yetarli bo'lishi, mavzuga mos qiziqarli topshiriqlarning, metodlarning to'g'ri tanlanishi tarbiyachidan katta kuch, ko'p mehnat va mahoratni talab qiladi. Bolalarning oson o'zlashtirishlariga imkon berish, o'zaro tengdoshlari bilan muloqotga kirishishlari uchun sharoit yaratish maqsadida tarbiyachi oldindan puxta tayyorgarlik ko'radi [8].

Tarbiyachi faoliyat jarayoniga qanchalik puxta tayyorlangan va qurollangan bo'lsa, shuncha yaxshi natijalarga erishib boraveradi. Komputar orqali faoliyatlarni, masalan shaxsiy gigiyena qoidalari (1-rasm) faoliyatini rasmlar, videoroliklar, slaydlar, multafilmlar, ko'rinishida taqdim qilish orqali bolalarga tozalikka rioya qilish o'rgatiladi. Bolalar komputarda tasvirlangan faoliyat jarayoniga oid rasmlarni hamda videoroliklarni ko'rish orqali voqealarga o'z munosabatlarini bildirishga, erkin fikrlashga, turli savollar berishga, mustaqil hikoya tuzishga o'rganib boradilar. Ularning tasavvurlari kengayib, diqqati oshib boradi, intellektual qobiliyatlari shakllanadi.

Intellektual qobiliyatlar deganda S.S. Otayeva "Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyalari" o'quv qo'llanmasida "idrok jarayonini amalga oshirish va muammolarni samarali hal qilish qobiliyati" tushuniladi, deb ta'rif bergan. Maktabgacha yoshning oxiriga kelib, bola kattalar va tengdoshlar bilan o'zaro munosabatlarda, savollar berishda va mustaqil ravishda sabab-oqibat munosabatlarini o'rnatishda faol qiziqish uyg'otadi [9]. Bu ma'lumotlar yuqorida ko'rsatib o'tilgan fikrlarning isboti desak mubolag'a bo'lmaydi.

"Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. **Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak**"[4]ligi ta'kidlanadi. Bu fikrlardan ko'rinadiki, raqamli bilimlarning dastlabki bo'g'ini hisoblangan iqtisodiy tushunchalar maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi ta'lim-tarbiya jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishi orqali bolalarda shakllantirib boriladi. Iqtisodiy ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tarzda olib borish tarbiyachi-pedagoglarning iqtisodiy rivojlanishi bilan o'zaro uzviy bog'liqdir.



1-rasm

XULOSA VA TAVSIYALAR

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, O'zbekistonda hozirgi davrda maktabgacha ta'lim tizimiga kuchli e'tibor qaratilayotgan ekan, bundan ko'zlangan asosiy maqsad: maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni har tomonlama barkamol, ma'nan yetuk shaxslar qilib voyaga yetkazishda hamda dunyo hamjamiyatida o'z o'rnini topishi uchun zamonaviy ta'lim-tarbiya berib, zarur bilimlar bilan qurollantirishdadir.

Shunday ekan, yaratilayotgan imkoniyatlardan to'laqonli foydalangan holda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim berishni raqamli texnologiyalardan foydalangan holda sifat jihatdan eng yuqori darajaga ko'tarmoq lozim. Bunda har bir tarbiyachi-pedagog bolalar vaqtini natija bermaydigan sabablar uchun o'g'irlamasdan, vaqtni to'g'ri taqsimlay olishi, faoliyatlar jarayonini bolalarni xotira, idrok, tasavvurlarini kengaytirishda raqamli texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etishi kerak.

AKT vositalari ishtirokida tashkil qilingan faoliyatlar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda erkin fikrlash, jarayonga munosabat bildirish, intellektual qobiliyatlar kabi bir qancha ijobiy xususiyatlarni shakllantirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sh.M. Mirziyoyev. "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2017-yil 9-sentabr, PQ-3261-son.

2. Sh.M. Mirziyoyev. "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2018-yil 30-sentabr, PQ-3955-son.

3. O'zbekiston Respublikasining, 2019-yil 16-dekabrda 595-sonli "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni..

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasidan.

5. G.B. Djumabaeva. Introduction Of Innovation in Education in Preschool Organizations "Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences" jurnali 114-116-bet.

6. A.A. Abduqodirov, G.U. Umarova. “Boshlang‘ich ta’limda informatika elementlarini o‘qitish metodikasi”, “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2016 y. – 6 s.

7. Quchqorova N.M. Tarbiyachilarga “Avesto”da iqtisodiy qarashlar va iqtisodiy tarbiya masalalarini o‘rgatish”. Journal of Advenced Research and Stability, 1–2-bet.

8. N.M. Quchqorova, R.S. Nuraddinova. “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi namunasida o‘tkaziladigan mavzuli faoliyatlarni tashkil etish”. “Bookmany print” nashriyoti. Toshkent – 2022. – 84-bet.

9. S.S. Otayeva. “Maktabgacha ta’limda STEAM texnologiyalari” “Bookmany print” nashriyoti. Toshkent – 2022. – 57–58-bet.